

Abdug'afforova Laylo Qaxramon qizi
Namangan davlat universiteti 4 - kurs talabasi
Email: abdugafforovalaylo56@gmail.com

Tel: 50 520 98 04

QARG'ISH VA DUO TUSHUNCHALARI GENEZISI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qarg'ish va duo tushunchalarining kelib chiqishi hamda shaklanish jarayoni yoritiladi. Qarg'ish va duo insoniyatning mifologik qarashlari, diniy e'tiqodlari bilan bog'liq holda paydo bo'lganligi izohlanadi. Ularning marosimlar tarkibi sifatida jamiyat hayotida tutgan o'rni, qadriyatlar tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida qarg'ish va duo insonning borliq, taqdir, ilohiy kuchlar haqidagi tasavvurlari asosida shakllangan qadimiy janrlar ekani tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mifologik tafakkur, folklor, duo, olqish, qarg'ish, paremik janr, maxsus tur, marosim, an'anaviy qadriyatlar.

Абдугаффорова Лайло Кахрамон кызы
Студентка 4 курса Наманганский государственный университет
Email: abdugafforovalaylo56@gmail.com

ГЕНЕЗИС ПОНЯТИЙ ПРОКЛЯТИЯ И БЛАГОСЛОВЕНИЯ

Аннотация: В данной работе рассматриваются происхождение и особенности формирования понятий проклятия и благословения в контексте мифологического мышления и религиозных представлений. Исследуется их становление как элементов традиционной духовной культуры, а также функционирование в составе обрядовой практики. Особое внимание уделяется их роли в системе культурных ценностей и речевых традиций общества. В результате исследования установлено, что проклятие и благословение представляют собой древние паремические формы, сформировавшиеся на основе представлений человека о мироустройстве, судьбе и высших силах.

Ключевые слова: мифологическое мышление, фольклор, благословение, добропожелание, проклятие, паремические формы, обряд, традиционные ценности.

Abdugafforova Laylo Qahramon qizi

4th-year student, Namangan State University

Email: abdugafforovalaylo56@gmail.com

THE GENESIS OF THE CONCEPTS OF CURSE AND BLESSING

Annotation: *This article examines the origin and formation process of the concepts of curse and blessing. It explains that curses and blessings emerged in close connection with mythological views and religious beliefs of humanity. Their role in social life as components of rituals and their significance within the system of values are revealed. The study concludes that curses and blessings are ancient genres formed on the basis of human perceptions about existence, fate, and divine forces.*

Keywords: *mythological thinking, folklore, blessing, benediction, curse, paremiological genre, specific type, ritual, traditional values.*

Kirish

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotida soʻzning kuchi, uning ijtimoiy, ruhiy va madaniy taʼsiri doimo muhim oʻrin egallab kelgan. Soʻz axborot uzatish quroli, shuningdek, soʻzlovchining ichki kechinmalari, eʼtiqodi, orzu-istaklari hamda voqelikka munosabatini ifodalovchi vosita sifatida namoyon boʻladi. Duo va qargʻish tushunchalari esa shu kabi vositalarlarning eng mukammali, oʻzida kuchli ruhiy asosni tashuvchi birligi sanaladi.

Duo va qargʻish qadimdan mifologik tasavvurlar bilan bogʻliq holatda kundalik nutq jarayonida doimiy faol qoʻllanib kelgan va eʼtiqodiy tasavvurlarning asosiy qismiga aylangan. Ular borliq haqidagi qarashlar, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar, insonning maʼlum vaqtdagi ruhiy holati, niyat va orzulari bilan bevosita bogʻliq holatda jamiyatga taʼsir koʻrsatishining oʻziga xos shakllaridan biriga aylangan.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek adabiyotshunosligida so'z magiyasi bilan bog'liq janrlarni o'rganilishida olim B.Sarimsoqovning xizmati katta. Olim o'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, tasnifi, genezisi va tarixiy taraqqiyoti, so'z magiyasiga bog'liq bo'lgan kinna, badik, olqish va qarg'ishlarni o'rgangan. Oxunjon Safarov ham folklorshunos olim sifatida duo va qarg'ish janrlarini o'rganib, o'z ichida ularni turlarga bo'lgan. F. Eshboyeva "O'zbek xalq qarg'ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati" mavzusida, N. Qo'chqorov esa "O'zbek xalq qarg'ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati" mavzusida dissertatsiyalarni himoya qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va tipologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida duo va qarg'ish janrlari tanlab olindi. Tahlil natijalari umumlashtirilib, duo va qarg'ish tushunchalarining genezisi hamda funksional xususiyatlari aniqlashtirildi.

Natijalar va ularning tahlili

Arabcha "iltijo", "chaqirish", "so'rash" ma'nolarini anglatuvchi duo so'ziga Islom ensiklopediyasida insonning Allohga bo'lgan ixlosi, umidi va e'tiqodining ifodasi sifatida talqin qilingan. Duo qilish orqali inson o'z istak va niyatlarini ijobat bo'lishini Allohdan so'raydi. Shu jihatdan duo inson bilan ilohiy kuch o'rtasidagi ma'naviy aloqani ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida duo so'zi bir necha ma'noda izohlanadi:

- 1.Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash.
- 2.Fotihada o'qiladigan qur'on surasi.
- 3.Kishining sog'lig'i, o'limi, baxtsizligiga sababchi deb hisoblanuvchi turli yovuz kuchlar, ins-jinslarni qaytarish, kimsani kimsaga isitish va shu kabilar uchun azayimxonlar, duoxonlar tomonidan o'qiladigan matn, xat.
- 4.Umuman kishilar bir-birlariga tilaydigan yaxshiliklar; yaxshi niyatlar.[1: 665]

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ham duo so‘ziga xudoga iltijo qilib, uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarishni so‘rash izohi berilgan. Duo ibtidoiy davrda so‘zning sehrli kuchiga ishonish, uning yordamida ilohiy kuchlardan foydalanish mumkin degan ishonch asosida shakllangan.[2: 408] Demak, duo dastlab magik xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tish bilan diniy-axloqiy mazmun kasb etib, yaxshilikka chorlovchi kuch sifatida qaralgan.

Duo tushunchasining o‘zbekcha muqobil varianti olqishdir. Ular insonlar o‘rtasida ijtimoiy birlikni mustahkamlash, ruhiy qo‘llab-quvvatlash va ijobiy kayfiyat uzatish vazifasini bajaradi. Shuning uchun janr nomi turkiy tillarda “maqtash”, “sharaflash”, “yaxshi istaklar bildirish” kabi ma’nolarni anglatuvchi qadimgi turkcha “ol” fe’li o‘zagidan yasalgan “olqish” atamasi bilan yuritiladi. Atama “ol” o‘zagiga – “qo‘” buyruq mayli hamda – “a(sh)” harakat nomi yasovchi qo‘shimchalarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.[3: 156] Shu bois duo va olqish semantik jihatdan bir-biriga yaqin, bir maqsadga xizmat qiluvchi tushunchalar sifatida talqin qilinadi.

Ozarbayjonlik olim B. Abdullayev fikricha, olqish so‘zidagi “al” kishilarga yaxshilik keltiruvchi yaxshi ruhning ismi bo‘lib, olqish atamasi ana shu ruhning ismidan olingan. Uning fikricha, “al” ruhi olov, qizillik, issiqlik, demakki, ezgulik bilan xarakterlanganligi uchun alvon rang atamasidagi “al” o‘zagi bilan ifodalangan.[4: 10]

Olqishlar ijro muhiti va usuli, funksional vazifasiga ko‘ra o‘ziga xos janr sifatida namoyon bo‘ladi. Shu xususiyatlari jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

Talab qilingan o‘rinda yoshi nisbatan ulug‘roq kishilar tomonidan aytiladigan kundalik maishiy olqishlar.

An’anaviy marosimlar tarkibida ijro etiluvchi olqishlar.[3:156]

Kundalik hayotda aytiladigan olqishlar – bu, odatda, insonlar orasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlash, farzandlar, qarindoshlar yoki qo‘shnilarga ezgu tilaklar bildirish maqsadida ishlatiladigan so‘zlar majmuasidir. Bunday olqishlar ko‘pincha yoshi kattaroq, tajribali va jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lgan kishilar tomonidan aytiladi, chunki

ularning tilaklari va duolari ijobat bo'lishi ehtimoli yuqori deb ishoniladi. Kundalik olqishlar oddiy va hamma uchun tushunarli iboralardan iborat bo'ladi. Masalan, *“Baxtli bo'l”, “Umring uzoq bo'lsin”*. Bu turdagi olqishlar, odatda, insonni qo'llab-quvvatlash, unga farovonlik va omad tilashga qaratilgan. An'anaviy marosimlarda aytiladigan olqishlar esa to'y, tug'ilgan kun, uyga ko'chish, yangi ish boshlash kabi tadbirlarda aytiladi. Bunday olqishlar ijobiy ma'noda, marosim qatnashchilarining kayfiyatini ko'tarmoq, ularni birlashishga undash maqsadida ishlatiladi.

O'zbek xalqi qadimdan duogo'yli bilan ajralib turadi. Har qanday ishni boshlashdan oldin, ayniqsa, yoshi ulug' otaxon va onaxonlar tomonidan niyat va duolar qilinishi an'anaga aylangan. Dasturxon atrofida, to'y va marosimlarda, yangi buyum xarid qilinganda, uzoq safarga o'tlanilganda yoki kundalik hayotning turli holatlarida ezgu niyatlar bildiriladi. Bu ijobiy istak birliklari xalqimizning qadimiy urf-odatlari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, milliy ma'naviy qiyofani yorqin ifodalaydi. Masalan, *“boshing to'ydan chiqmasin”, “uvali-juvali bo'lgin”, “serfarzand, serdavlat bo'lgin”, “o'zingdan ko'payib yurgin”, “qo'sha qarigin”, “qo'ni-qo'shni oldida yuzing yorug' bo'lsin”* kabi olqishlarda xalqimizning hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari mujassam. Jumladan, *“boshing to'ydan chiqmasin”* degan tilak orqali to'y-hashamga, ehson va bazmlarga alohida e'tibor berish an'anasi ifodalanadi. *“Topganing to'ylarga buyursin”* kabi istaklar esa halol mehnat samarasining ezgu ishlarga sarflanishini niyat qilishga yo'naltirilgan. *“Uvali-juvali bo'lgin”, “serfarzand bo'lgin”, “o'zingdan ko'payib yurgin”* singari istaklarda o'zbek xalqining bolajonligi, avlod davomiyligiga bo'lgan yuksak munosabati yaqqol seziladi. Xalqimiz uchun farzand hayot mazmuni sanaladi, bu esa *“Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor”* kabi xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan, yangi kelin-kuyovlarga bildiriladigan barcha ezgu tilaklar kelajak avlodni dunyoga keltirish, ularni barkamol etib tarbiyalash g'oyasi bilan chambarchas bog'liq va milliy madaniyatimizning muhim qirralarini to'laqonli aks ettiradi.

Duo tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladigan birliklardan biri – qarg'ish. Qarg'ish tushunchasi badiiy adabiyotda *yomonlik*, *o'lim*, *taqdir* motivlarini o'zida birlashtirishi bilan ajralib turadi. Qarg'ish odatda la'natlash yoki yomon tilak bildirish ma'nosida ishlatiladi. Manbalarda ham bu so'zning kelib chiqishi mazkur sema orqali izohlanadi. O'zbek tilining etimologik lug'atida esa **qarg'ish** – yomonlik tilab aytiladigan so'zlarga nisbatan qo'llangan. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu so'z *la'natla* ma'nosini anglatgan **qarig'**- fe'lidan **-(i)sh** qo'shimchasi bilan yasalgan.[5: 530] Vaqtlar o'tishi bilan fonetik o'zgarishlar natijasida qarg'ish shakliga kelgan. "Devoni lug'ati-t-turk" asarida ham qarg'ish so'zi **qarg'ish, la'nat**[6: 183] ma'nosida berilgan. Bu holat qarg'ish tushunchasining tarixan salbiy semantik yuklama bilan qo'llanib kelganini tasdiqlaydi. Demak, qarg'ish atamasi salbiy ma'noda ishlatilgan va kim yoki nimadir (asosan hodisalar) qoralanib, unga nisbatan keskin norozilik ifodalangan.

F. Eshboyeva o'z dissertatsiyasida Vologod viloyati orasida "qarg'ovchi tilidan aytilgan qarg'ish egasiga tegadi, mabodo qarg'aluvchida qarg'ish tegmaydigan xususiyat mavjud bo'lsa, u holda og'izdan chiqqan qarg'ish yetti yil osmonda muallaq turadi va baribir kimgadir tegadi",- degan e'tiqodiy qarash keng tarqalganligini ta'kidlagan.

Folklorshunoslikda maqol, topishmoq, badik, kinna, olqish va qarg'ish janrlarini kichik janrlar sifatida qaralinib, paremik janr hisoblansa-da, B. Sarimsoqov bu janrlarni "maxsus tur" tarzida ajratgan, qarg'ish va olqishlarni ham aynan shu tur ichiga qo'shgan. Ana shu qarash tarafdorlaridan biri Z.Sallagova o'zining Chechen-ingush folkloridagi aforistik janrlar tadqiqiga doir bir maqolasida qarg'ish va olqish janrlarini o'zaro qiyoslaydi. Olqishlarda quyosh chiqishi metaforizastinlashtirilgan bo'lsa, qarg'ishda quyoshning botishi, ya'ni "zulmat" obrazi asosga olinishini ko'rsatib o'tadi.[7: 16] Darhaqiqat, olqishlarda inson hayotiga ezgulik tilash orqali uning taqdiriga go'yo yorug'lik kirib kelishi tasavvur qilinsa, qarg'ishlarda inson hayotining zulmatga yuz tutishi, baxtsiz va barakasiz kechishi nazarda tutiladi. Shu jihatdan, qarg'ish va olqish janrlari mazmuniy qarama-qarshilikka asoslangan holda bir-birini to'ldiruvchi paremik janrlar sifatida namoyon bo'ladi.

Qarg‘ish janri ozarbayjon adabiyotida ancha mukammal o‘rganilgan ekan. Olima ilmiy ishida ta’kidlashicha, O.Nabiyev xalq orasida saqlanib qolgan qarg‘ish va olqishlarni quyidagicha tasniflaydi:

- 1) marosimlar bilan bog‘liq holda yaratilgan olqish va qarg‘ishlar;
- 2) xalqning turmush tarzi va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq holda yaratilgan olqish va qarg‘ishlar;
- 3) mifologik va diniy tasavvurlar ta’sirida yaratilgan olqish va qarg‘ishlar.

Bu tasnif turkiy xalqlar folkloridagi eng mukammal tasnif hisoblanadi.

Qarg‘ishlar xalqning ma’lum etiqodiy qarashlari zahirida shakllangan janrdir. Z.Masharipova “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” o‘quv qo‘llanmasida 3 guruhga bo‘lgan.

1.Mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq qarg‘ishlar: mifologik obrazlar zahirida yaratiladi. *“Arvoh ursin”*, *“Jin ursin”*.

2.Tabiat dunyosi bilan bog‘liq qarg‘ishlar: tabiat dunyosi bilan bog‘liq qarg‘ishlar: Xalq qarg‘ishlarining ba’zilari o‘simlik dunyosi, ba’zilari hayvonot olami bilan bog‘liqdir. Masalan, *“Ha ko‘zingga gul tushsin”* qarg‘ishi keksa ayollar o‘rtasida keng qo‘llaniladi. Chunki qadimiy tasavvurlarga ko‘ra qizil gul kuchli sehr-qudratga ega bo‘lgan, yomon ruhlarni, jinlarni o‘ziga chaqirib olib, jonli narsalarga, ayniqsa, kishilarga zarar yetkazuvchi o‘simlik sanalgan.

Hayvonot olami bilan bog‘liq: *“Go‘shningni quzg‘unlar cho‘qisin”*.

3. Turli jonsiz narsalar bilan bog‘liq qarg‘ishlar: Xalq o‘rtasida *“sut ko‘r qilgur”*, *“non ko‘r qilgur”* kabi qarg‘ishlar keng tarqalgan. Ularda kishilar o‘zlariga muqaddas sanalgan narsalarning yomon ta’sir ko‘rsatish qudratidan qo‘rqish hissi yetakchilik qiladi.

Qarg‘ishlar ijrochisi kimligiga qarab ham turlarga bo‘linadi, ya’ni yoshi, oiladagi darajasi, ruhiy holatiga ko‘ra farqlanadi. Shunga ko‘ra:

1. Obyektga o‘tadigan qarg‘ishlar(kishini tutadigan).
2. Obyektga o‘tmaydigan qarg‘ishlar(tutmaydigan).[3: 160]

Obyektga o'tadigan qarg'ishlarga qari insonlarning, otalarning, musofirlarning qarg'ishlari kiritiladi. Ayniqsa, otalarning qarg'ishi tegadi. "Otaning qarg'ishi o'q", - degan gap yuradi. Chunki otalar haqiqatdan o'rinli bo'lgandagina qarg'aydilar.

Obyektga o'tmaydigan qarg'ishlarga esa bo'lar-bo'lmas gap gapiruvchi ayollar, onalarning qarg'ishi kiritiladi.

Qarg'ishlar kishining aybiga qarab aytiladi. Ochofat kishilarga qarata "*Teshib chiqsin*", "*Yeganing og'zingda qolmasin*", "*Yeganing buyurmasin*", "*Nafsingga o't tushgur*" kabi; g'iybatchi, dilozor insonlarga esa "*Tilginang uzilib tushsin*", "*Tilingga chechak chiqqur*", "*Tilingdan chiqib yoqangga yopishsin*" kabi; kabi qarg'ishlardan foydalanilgan. Bunday qarg'ishlarda urg'u olayotgan so'z uni qanday insonga tegishlilikini ifodalaydi. Masalan, "*Nafsingga o't tushkur*" qarg'ishida nafs so'zi urg'u olayapti hamda uning ochko'z ekanligini izohlaydi.

Qadimgi insonlar qarg'ish aytilgandan so'ng uni orqaga qaytarib olish mumkin deb qarashgan. Ular qarg'ish o'z hayotlariga ta'sir etishidan cho'chishgan. Uning orqaga qaytarish yoki ta'sir kuchini kamaytirish uchun turli xildagi aytimlarni ijro qilishgan.

Yutganim yumurtimga,
Ko'zlaganim qo'limga,
Urishganim o'zimga,
Qarg'aganim qornimga.
Suvsarlarga oqsin,
Yellarga uhsin,
Tog'-u toshlarga ursin,
Mening qarg'ishlarim yiroqqa ketsin! [3: 162]

Yuqoridagi aytim ham qarg'ishni qaytarish uchun aytilgan. Bu so'zning magik kuchini susaytirishiga ishonishgan. Qarg'ishlarning hammasi ham amalga oshavermagan. Nohaq aytilgan qarg'ishlarga amalga oshmagan.

Har ikkala janr: olqish va qarg‘ish umumiy jihatlarga ega bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Xususan, qarg‘ishlar tarkibida doimiy motiv sifatida uchraydigan o‘lim bilan bog‘liq an‘anaviy ifodalar vaqt o‘tishi bilan badiiy jihatdan bosqichma-bosqich o‘zgarishga uchraganini kuzatish mumkin. O‘lim motiviga daxldor “o‘ligini it-shag‘allar chaqalasin”, “o‘ligini it yesin”, “sag‘anada qolgin”, “ko‘kini kiysin”, “o‘ligi ko‘chada qolsin”, “yer yutsin” kabi aytimlar tipologik jihatdan tahlil qilinganda, tarixiy va madaniy omillar ta’sirida ularning dastlabki semantik mohiyati o‘zgarib, yangi ma’no qatlamiga ko‘chgan holatlari mavjud. Masalan, Oneskrit baqtriyaliklar urf-odati haqida shunday yozadi: Ularning urf-odatiga ko‘ra, qarigan kishini o‘lmasa ham tirik holda itlarga berilgan. Baqtriyaliklar xonadonida ana shu maqsadda maxsus itlar saqlangan. Boy badavlat, o‘ziga to‘q germaniyaliklar ham o‘zlarining oxiratini o‘ylab, avvaldan uyda it boqishgan. Yoki, N.F.Katanovning aniqlashicha, “Tarbagatiy shahri aholisi marhum jasadini ustiga moy qo‘yib maxsus joyga chiqarib qo‘yadilar. Chunki moy quyilgan murda go‘shini itlar tezda yeb ketisharmish. Itlar jasad go‘shini qanchalik tez yeyishsa, o‘lgan kishining qarindoshlari shuncha xursand bo‘lisharmish”.[8:106]

Dafn marosimlarida itning muhim rol o‘ynashi zardushtiylik dini va unga xos mifologik qarashlar bilan chambarchas bog‘liq. “Avesto” manbalarida it muqaddas mavjudot sifatida tasvirlanib, yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi jonivor sifatida talqin etiladi. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, it yovuzlikni daf etuvchi kuch hisoblangan. Shu nuqtayi nazardan “o‘ligini it-shag‘allar chaqalasin”, “o‘ligini it yesin” kabi ifodalarning tarixiy-genetik ildizlari ana shu mifologik tasavvurlarga borib taqaladi. Ilk davrlarda bunday aytimlar marosimiy tizimda marhumning narigi dunyodagi taqdiri uchun ijobiy tilak, ya’ni olqish vazifasini bajargan bo‘lsa, keyinchalik semantik o‘zgarish natijasida qarg‘ish sifatida qabul qilina boshlangan.

Xulosa

Duo va qarg‘ish inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlariga mansub. Ular so‘zning sehrli kuchiga bo‘lgan ishonch asosida shakllangan. Ular so‘z magiyasiga

asoslangan janrlar tizimi doirasida shakllangan va xalq madaniyati, diniy-axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog'liq. Ular shaxsning ruhiy holatini aks ettiruvchi vosita bo'libgina qolmay, folklor va adabiyotda badiiy-estetik funksiyani bajaruvchi muhim element hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Б. 665.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. – Б. 408.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2010. – B. 156-149-160-162- 161.
4. Қўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусияти ва бадиияти. – Самарқанд, 1994. – Б. 10.
5. Рахматуллаев Ш.. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 530.
6. Koshg'ariy M.. Devoni lug'ati-t-turk. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 183.
7. Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусияти ва бадиийати. – Тошкент, 2008. – Б. 11-16
8. Kamilova F. Xalq og'zaki ijodida olqish va qarg'ishlarning janr xususiyatlari. Til va adabiyot.uz. Ilmiy-metodik elektron jurnal. 2025-yil, yanvar 1- son. – B. 106.
9. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
10. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2017.
11. Машарипова З. Ўзбек халқ оғзаки ижоди: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008.

